

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



# ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol.2 N.1

2026

**International Journal of  
Contemporary Scientific  
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 1**

**2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik  
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**1-son**

**2026**

**Международный журнал  
современных научно-**

**технических**

**исследований**

**Том 2 Выпуск 1**

**2026**



# MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

## Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

### Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

### Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

### Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

### Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

*Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.*

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

### Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,  
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.

## **GLOBALLASHUV JARAYONLARINING ZAMONAVIY FALSAFIY PARADIGMALARI VA ULARNING TA'LIM TIZIMIGA TA'SIRINING FALSAFIY ASPEKTLARI**

**Axmadjanova Muazzam Islomjanovna**

Namangan davlat pedagogika instituti, mustaqil tadqiqotchi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada globallashuv jarayonlarining zamonaviy falsafiy paradigmlarini ta'lim tizimiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi liberal va neomarksistik paradigmlar doirasida globallashuvning ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar hamda talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tizimli va falsafiy-pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, globallashuv ta'limning internatsionallashuvi, akademik mobillik va raqamli ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, axborot oqimining ortishi hamda mafkuraviy ta'sirlarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois D. Halpern tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlash modeli talabalarda axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, muqobil qarashlarni qiyoslash va asosli xulosalar chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim metodologik asosi sifatida namoyon bo'ladi. Xulosa sifatida globallashuv sharoitida ta'lim jarayoniga tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan metodlarni integratsiya qilish zarurligi asoslandi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, falsafiy paradigma, liberal paradigma, neomarksistik paradigma, tanqidiy fikrlash, D.Halpern, pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim tizimi, akademik mobillik.

## **СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОСОФСКИЕ ПАРАДИГМЫ ПРОЦЕССОВ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ИХ ВЛИЯНИЯ НА СИСТЕМУ ОБРАЗОВАНИЯ**

**Ахмаджанова Муаззам Исламжановна**

Наманганский государственный педагогический институт, независимый исследователь

### **Аннотация**

В статье анализируется влияние современных философских парадигм глобализации на систему образования. Цель исследования заключается в выявлении влияния либеральной и неомарксистской парадигм глобализации на содержание образования, педагогические технологии и формирование компетенций критического мышления студентов. В исследовании использованы сравнительно-аналитический, системный и философско-педагогический методы. Результаты показали, что глобализация способствует интернационализации образования, расширению академической мобильности и цифровых образовательных возможностей, одновременно усиливая информационные потоки и идеологическое воздействие. В этих условиях модель критического мышления Д. Халперн выступает важной методологической основой развития у студентов навыков анализа информации, оценки аргументов, сопоставления альтернативных точек зрения и принятия обоснованных решений. Сделан вывод о необходимости интеграции методов развития критического мышления в образовательный процесс в условиях глобализации.

**Ключевые слова:** глобализация, философская парадигма, либеральная парадигма, неомарксистская парадигма, критическое мышление, Д. Халперн, педагогические технологии, компетентностный подход, система образования, академическая мобильность.

## **CONTEMPORARY PHILOSOPHICAL PARADIGMS OF GLOBALIZATION PROCESSES AND THE PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THEIR IMPACT ON THE EDUCATION SYSTEM**

**Axmadjanova Muazzam Islomjanovna**

Namangan State Pedagogical Institute, Independent Researcher

### **Abstract**

This article examines the impact of contemporary philosophical paradigms of globalization on the education system. The purpose of the study is to identify how liberal and neo-Marxist paradigms influence

educational content, pedagogical technologies, and the development of students' critical thinking competencies. The research employs comparative-analytical, systemic, and philosophical-pedagogical approaches. The findings indicate that globalization promotes the internationalization of education, academic mobility, and digital learning opportunities while simultaneously increasing information flows and ideological influences. In this context, D. Halpern's critical thinking model serves as an important methodological framework for developing students' abilities to analyze information, evaluate arguments, compare alternative perspectives, and make reasoned judgments. The study concludes that integrating critical thinking-oriented teaching methods into the educational process is essential in the context of globalization.

**Keywords:** globalization, philosophical paradigm, liberal paradigm, neo-Marxist paradigm, critical thinking, D. Halpern, pedagogical technologies, competency-based approach, education system, academic mobility.

XXI asrda globallashuv insoniyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biriga aylandi. Ushbu jarayon iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarning jadallashuvi bilan bir qatorda ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'limning xalqaro integratsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, akademik mobillikning kengayishi globallashuvning ta'lim sohasidagi asosiy ko'rinishlaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur jarayon milliy ta'lim qadriyatlarini va madaniy o'ziga xosliklarning saqlanishi masalasini ham dolzarb muammoga aylantirmoqda. Shu sababli globallashuvning falsafiy asoslarini tahlil qilish va uning ta'lim tizimiga ta'sirini ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuvni tushuntirishga qaratilgan zamonaviy falsafiy paradigmalar orasida liberal paradigma alohida o'rin tutadi. Mazkur yondashuv vakillari globallashuvni insoniyat taraqqiyotining tabiiy va muqarrar bosqichi sifatida talqin qiladilar. Francis Fukuyama, Thomas Friedman va Kenichi Ohmae fikricha, globallashuv iqtisodiy o'sish, texnologik taraqqiyot va demokratik qadriyatlarning keng tarqalishiga xizmat qiladi [1].

Liberal paradigma nuqtai nazaridan ta'lim tizimi globallashuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, ta'limning internatsionallashuvi natijasida talabalar va professor-o'qituvchilarning akademik mobilligi kengayadi, xalqaro ilmiy hamkorlik rivojlanadi va bilimlar almashinuvi jadallashadi [2]. Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA, TIMSS va PIRLS tizimlari ta'lim sifatini baholashning muhim vositasiga aylanmoqda.

Liberal paradigma ta'lim mazmunining modernizatsiyasini ham qo'llab-quvvatlaydi. Bugungi kunda an'anaviy bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda kommunikativ kompetensiya, media savodxonlik, kreativlik va tanqidiy fikrlash kabi universal kompetensiyalarni shakllantirish muhim vazifaga aylanmoqda [3]. Bu esa pedagogik jarayonda innovatsion metodlar, interaktiv ta'lim texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalanishni talab etadi.

Shu bilan birga, globallashuvning neomarksistik paradigmasi ushbu jarayonga tanqidiy yondashadi. Immanuel Wallerstein, Samir Amin va David Harvey globallashuvni kapitalistik tizimning global miqyosdagi kengayishi sifatida baholab, uning natijasida markaz va periferiya mamlakatlari o'rtasidagi tafovutlar kuchayishini ta'kidlaydilar [4]. Ularning fikricha, ta'lim tizimi ham ushbu jarayon ta'siridan chetda qolmaydi.

Neomarksistik yondashuv vakillari ta'limning bozor munosabatlariga tobora ko'proq bo'ysundirilayotganiga e'tibor qaratadilar. Ta'lim xizmatlarining tijoratlashuvi natijasida sifatli ta'lim olish imkoniyatlari ijtimoiy tabaqalarga qarab farqlanmoqda. Natijada ta'limning ijtimoiy tenglikni ta'minlash funksiyasi zaiflashib, u iqtisodiy manfaatlarga xizmat qiluvchi vositaga aylanish xavfi paydo bo'lmoqda [5].

Mazkur paradigma doirasida yana bir muhim masala — milliy ta'lim tizimlarining standartlashuvi hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim standartlari va baholash mezonlari ko'plab mamlakatlar uchun umumiy model vazifasini bajarmoqda. Biroq bu holat ayrim hollarda milliy madaniyat, tarixiy tajriba va pedagogik an'analarning ikkinchi darajaga tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin [6].

Neomarksistik olimlar "miyalar oqimi" fenomenini ham globallashuvning salbiy oqibatlaridan biri sifatida baholaydilar. Rivojlanayotgan mamlakatlarda tayyorlangan yuqori malakali mutaxassislarining rivojlangan davlatlarga ko'chib o'tishi natijasida milliy ilmiy va intellektual salohiyat zaiflashishi mumkin [7]. Bu holat ta'lim tizimi samaradorligiga va mamlakatning innovatsion rivojlanish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, globallashtirishning ijobiy va salbiy jihatlarini muvozanatli ravishda baholash zarur. Bir tomondan, u ta'lim sifatini oshirish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'zlashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan esa, milliy ta'lim qadriyatlarini saqlash, madaniy identifikatsiyani mustahkamlash hamda ta'limning ijtimoiy adolat tamoyillarini himoya qilish zarurati yuzaga keladi.

Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimi globallashtirishning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishi bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlarini minimallashtirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni ham ishlab chiqishi lozim. Ayniqsa, talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil qilish va axborotni baholash kompetensiyalarini shakllantirish globallashtirish sharoitida muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Globallashtirish sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish hisoblanadi. Amerikalik olim D. F. Halpern tanqidiy fikrlashni maqsadga yo'naltirilgan, mantiqiy va dalillarga asoslangan fikrlash jarayoni sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, tanqidiy fikrlash shaxsga axborotni tahlil qilish, argumentlarni baholash, muammolarni hal etish hamda asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Globallashtirish natijasida axborot oqimining keskin ortishi va turli mafkuraviy ta'sirlarning kuchayishi sharoitida Halpern tomonidan tavsiya etilgan tahliliy fikrlash, dalillarni tekshirish va reflektiv baholash ko'nikmalari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, globallashtirishning liberal va neomarksistik paradigmalarni o'rganishda talabalarning tayyor bilimlarni qabul qilishi emas, balki ularni tanqidiy tahlil qilishi, turli nazariy pozitsiyalarni qiyosiy baholashi hamda mustaqil xulosa chiqarishi muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'ladi [8].

Globallashtirish zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatayotgan murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayondir. Liberal paradigma ushbu jarayonni taraqqiyot va integratsiyaning muhim omili sifatida baholasa, neomarksistik paradigma uning tengsizlik va madaniy unifikatsiyaga olib keluvchi jihatlarini tanqid qiladi. Ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa globallashtirishning ijobiy imkoniyatlarini milliy ta'lim manfaatlarini bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda tanqidiy fikrlash, madaniy identifikatsiya va innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Fukuyama F. *The End of History and the Last Man*. – New York: Free Press, 1992.
2. Friedman T. *The World Is Flat: A Brief History of the Twenty-First Century*. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2005.
3. OECD. *The Future of Education and Skills 2030*. – Paris: OECD Publishing, 2018.
4. Wallerstein I. *World-Systems Analysis: An Introduction*. – Durham: Duke University Press, 2004.
5. Harvey D. *A Brief History of Neoliberalism*. – Oxford: Oxford University Press, 2005.
6. Amin S. *Capitalism in the Age of Globalization*. – London: Zed Books, 1997.
7. Altbach P. G., Reisberg L., Rumbley L. E. *Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution*. – Paris: UNESCO, 2009.
8. Halpern D. F. *Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking*. – 5th ed. – New York: Psychology Press, 2014.